

af

2021/2022-o'quv yilida O'zbekistondagi oliy ta'lim muas-
sasalarida tahsil olayotgan talabalar 808,4 ming nafar.

Shundan:

yigitlar:
439,4 ming nafar

qizlar:
369 ming nafar

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

40 (16493)
2022-yil, 22-iyun
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Sharh
2-bet Prezidentning ayrim vakolatlarini
Oliy Majlisga o'tkazish taklif qilindi

Mahallada yoshlar yetakchisi
5-bet

Istanbulga 5
kunlik sayohat

Minbar
6-bet Talaba nega
ishlay olmaydi?



Foto: Anvar TO'YCHIEV

MUROSASIZ

“MUNOZARA” YAKUNLANDI

“Yoshlar oyligi” doirasida o'tkazilgan “Munozara”
intellektual turnirining respublika bosqichida Namangan
viloyati jamoasi mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi.

batafsil
4-betda

PREZIDENTNING AYRIM VAKOLATLARINI OLIY MAJLISGA O'TKAZISH TAKLIF QILINDI

Bugungi kun holatiga ko'ra, Konstitutsiyaviy komissiyaga fuqarolarimizdan 48 ming 492 ta taklif kelib tushgan. Ammo aholi orasida Konstitutsiyamiz zamonaviy demokratik talablarga javob beradi-ku, unga o'zgartirish kiritishga ehtiyoj bormi, konstitutsiyaviy islohotlar oddiy aholiga, xalqimiz farovonligini ta'minlash, jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotiga nima beradi, degan savollar ham yuzaga kelmoqda.

Kuni kecha Prezidentimiz Konstitutsiyaviy komissiya vakillari bilan uchrashib, nega konstitutsiyaviy islohot zarur ekanligini tushuntirdi va qator takliflar bildirdi.

INSON – JAMIYAT – DAVLAT

Prezident komissiya a'zolari e'tiborini bir nechta ustuvor yo'nalishlarga qaratadi. Bunda birinchi yo'nalish etib inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmatini, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini masalasi belgilandi.

"Inson davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai ham-

da eng oliy qadriyat bo'lishi lozim", – dedi davlatimiz rahbari.

Insonning qadr-qimmatini haqida gap ketar ekan, eng asosiy masala uning tabiiy yashash huquqidir. Takliflarni yo'llash jarayonida ayrim fuqarolar o'lim jazosini tiklash, uni jinoyat qonunchiligiga qayta kiritish haqida ham taklif yo'llagan edi.

Shavkat Mirziyoyev bu masalaga alohida to'xtalib, yashash huquqi har bir insonning tabiiy huquqi bo'lib, unga bu huquqni davlat emas, Yaratganning o'zi ato etganini, Konstitutsiyamizga "O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi" degan yana bir muhim normani kiritish taklifini aytib o'tadi.

Shuningdek, huquq-tartibot organlari tomonidan shaxs qo'lga olinganda uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishi shartligi, shaxs sudning qaroriga qadar ko'pi bilan 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi, shaxsning sudlanganligi va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklashga asos bo'lishi mumkin emasligi, har bir O'zbekiston fuqarosi mamlakat bo'ylab yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega bo'lishi zarurligi alohida ta'kidlandi.



HAR BIR O'ZBEKISTON FUQAROSI MAM-LAKAT BO'YLAB YASHASH JOYINI ER-KIN TANLASH HUQUQIGA EGA BO'LISHI ZARURLIGI ALOHIDA TA'KIDLANDI.

O'ZBEKISTON – IJTIMOYIY DAVLAT

Davlatimiz rahbari ikkinchi yo'nalish etib Asosiy qonunimizda "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan g'oyani mustahkamlashni taklif etadi.

Bunda ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi etib ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib borish, ishsizlikdan himoyalash, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash belgilandi.

"Ijtimoiy davlatda inson qadri deganda, avvalo, fuqaroni yashash uchun zarur uy-joy bilan ta'minlashni tushunamiz. Shu bois uy-joyli bo'lish, uning daxlsizligini ta'minlash har bir inson hayotida qanchalik muhim ekanini barchamiz yaxshi bilamiz", – dedi Prezidentimiz.

Shuningdek, uy-joy bo'yicha konstitutsiyaviy kafolatni belgilab qo'yish lozimligi aytiladi. Ya'ni sudning qarorisiz hech kim uy-joyidan mahrum qilinmasligi kerak. Imorat buzilishga tushadigan bo'lsa, buning uchun buzishdan oldin uning qiymatiga mos ravishda kompensatsiya to'lanishi shart.

Bu yo'nalishda ko'p bolali oilalarga qonunga muvofiq imtiyoz va ijtimoiy kafolatlar yaratib berish, bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan insonlar – jamiyatning to'laqonli a'zolari degan tamoyil negizida ularning konstitutsiyaviy huquq va kafolatlarini belgilab qo'yish alohida qayd etildi.

ERKIN FUQAROLIK JAMIYATI


Uchinchi yo'nalish – erkin va adolatli fuqarolik jamiyati rivojlantirish bilan bog'liq masala. Bunda mahallalarning davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi, joylardagi mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal etish bo'yicha vakolatlari belgilanishi alohida qayd etildi.

To'rtinchi yo'nalish O'zbekistonda insonparvar, demokratik huquqiy davlat qurish masalasidir. Ushbu yo'nalishda Konstitutsiyaga davlat organlari faoliyatida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni, mazkur organlarning ixcham va tejamkor bo'lishini ta'minlash yuzasidan qoidalar kiritish taklif qilindi.

Selektor davomida Prezidentning ayrim vakolatlarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga o'tkazish, Hisob palatasi raisini lavozimga tayinlash va ozod qilish vakolatini Oliy Majlis Senatiga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lishi aytib o'tildi.

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

ILM KARVONLARI MANZILIGA YO'L OLDI



Surxondaryo viloyatida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida yoshlar festivali o'tkazildi.

Festivalda "Hokim va yoshlar" uchrashuvi, "Janub zukkolari", "Baxshichilik", "Yosh kitobxon" tanlovlari, ko'ngilochar dasturlar tashkil etildi. Mehnat yarmarkasi, milliy taomlar namoyishi va madaniyat markazlari chiqishlari kabi 15 dan ortiq turli loyihalar, yakunda esa taniqli san'atkorlar ishtirokidagi gala-konsert va mushakbozlik tomoshalari unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi.

Eng olis hudud yoshlari foydalanishi uchun mahallalardagi yoshlar yetakchilariga 7 ming 500 dona eng sara badiiy asarlar yuklangan "Kitob karvoni" Termiz shahridagi Yoshlar markazidan yo'lga chiqdi.

Mashhura NASRIDINOVA
"Yoshlar ovozi" muxbiri

SUDNING QARORISIZ HECH KIM UY-JOYIDAN MAHRUM QILINMASLIGI KERAK.

27 MINGDAN ZIYOD TALABANING SHARTNOMA PULI TO'LAB BERILDI



Umidulla SATTOROV,
Yoshlar ishlari agentligi Ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash va volontyorlikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i



Yoshlarning sifatli ta'lim olishiga ko'maklashish, fan, ta'lim sohasidagi yangiliklar, shuningdek, yoshlar orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va yetarli sharoit yaratib berish eng asosiy vazifalarimizdan biridir. Shu maqsad yo'lida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yoshlarni oliy ta'limga jalb etish maqsadida har yili hududlarda xorijiy va respublika oliy ta'lim muassasalarining "Ta'lim va mutaxassislik" ko'rgazmalari tashkil etib kelinyapti. Joriy yil o'tkazilgan ko'rgazmaning o'zida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida bepul o'qish uchun 100 dan ortiq grant o'rinlari e'lon qilinib, iqtidorli, bilimli va tashabbuskor yoshlar saralab olindi.

TA'LIM MIGRATSIIYASI

Yoshlar orasida ta'lim migratsiyasi masalasini o'rgananimizda xorijiy talabalarni qabul qilish bo'yicha asosiy mintaqa Yevropa ekani ma'lum bo'ldi. Bu yerda tahsil olayotgan chet ellik talabalar soni 900 mingga yetadi (bu ko'rsatkich, asosan, Yevropa Ittifoqi ichidagi talabalar migratsiyasi bilan bog'liq). Bunda Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari talabalari yetakchi o'rinni egallaydi. Ular orasida Osiyodan kelgan chet ellik talabalar 30 foizni tashkil etadi (15 foizi xitoylik yoshlar). Chet elda o'qishni tanlagan talabalar soni Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropa 18 foiz, Markaziy va Sharqiy Yevropa 11 foiz, Janubiy va G'arbiy Osiyo 9 foiz, Arab davlatlari 7 foiz va Afriqa davlatlari 8 foizga to'g'ri keladi.

XALQARO FAN OLIMPIADALARIGA TAYYORGARLIK

Nufuzli xalqaro olimpiadalarga 84 nafar iqtidorli o'quvchi-yoshlarning yuqori darajada tayyorgarlik ko'rishlari uchun Bo'stonlik tumanidagi "Yoshlar oromgohi"da maxsus o'quv bazasi tashkil etildi. Bu yerda xalqaro fan olimpiadalarida doimiy ishtirok etib, yuqori tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan xalqaro olimpiada standartlari asosida bir haftalik mahorat darslari o'tkazildi.

Xalqaro imtihonlardan yuqori ball olgan yoshlarga imtihon topshirish xarajatini to'liq qoplab

berish tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, 2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, jami 5 441 nafar yoshning 9 926,3 million so'mdan ortiq imtihon xarajatlari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan to'liq qoplab berildi.

JAHON LIDERLARI BILAN UCHRASHUV

Joriy yilning mart-aprel oylarida tajribali tadbirkorlar "Najot ta'lim" o'quv markazi asoschisi Temurbek Adhamov hamda "Les Ailes" bosh menejeri Abdubosir Ahmadjonov, xalqaro miqyosda yuqori nufuzga ega notiq, AQSHning Yozuvchilar va ma'ruzachilar assotsiatsiyasi a'zosi, "Samo" xalqaro markazi asoschisi, motivatsion trener Saidmurod Davlatov, biznes trener Iroda Utarova, "Cambridge" o'quv markazi asoschisi Jahongir Po'latov hamda "Iman" startup loyihasi rahbari Rustam Rahmatov, Yevropaning "FinEst Bay Area" kompaniyasi va "Angry Birds" o'yini asoschisi Piter Vesterbakalarning 1300 nafardan ortiq yoshlar bilan motivatsion uchrashuvlari tashkil etildi. Uchrashuvlarda yoshlar biznesga kirish, xodimlarni tanlash va boshqarish usullari, kelajak biznesi, chet tilini o'rganish, axborot texnologiyalari, onlayn biznes, marketing va menajment, bozor tahlili, biznesdagi bankrotlik, moslashuvchan biznes, tadbirkorlik qadriyatlarini hamda boshqa yo'narlilarda bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdi. O'z ishini boshlash arafasida yoki tadbirkorlikning dastlabki bosqichida turgan minglab yoshlar mamlakatimizda muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan ishbiarmonlardan biznesning yozilgan va yozilmagan qoidalarini o'rgandi.

"TALABAGA MADAD"

To'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talaba-yoshlar uchun ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilib, 2021-yilda 202 230,2 million so'm, 2022-yilda 66 433,7 million so'm ta'lim krediti mablag'lari ajratildi. Tartibga ko'ra, ta'lim kreditining asosiy qismi talabaning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi. Shuningdek, ta'lim kreditlari uchun foizlarni hisoblash va to'lash mablag' o'tkazilgan sanadan boshlanadi.

"Talabaga madad" loyihasidan to'lov-kontrakt mablag'ini to'lab berishda amaliy yordam so'rab murojaat qilgan 27 107 nafar talaba-yoshning mamlakatimizdagi professional va oliy ta'lim muassasalarida o'qish bo'yicha kontrakt "Yoshlar daftari" jamg'armasi hisobidan to'lab berildi.

VOLONTYORLARGA 7 MILLIARD SO'M

2019-yil dekabr oyida "Volontyorlik faoliyatini to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bu harakat rivoji yo'lidagi muhim turtki va katta odim bo'ldi. 2020-yil dekabrda esa bir guruh volontyorlar birlashib, volontyorlik faoliyatini tashkil etishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish, insonparvarlik, bag'rikenglik, hamjihatlikni qo'llab-quvvatlash hamda volontyorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasi tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi "Yoshlar markazlari"da "Volontyorlar maktablari" infratuzilmasi joriy etildi.

Joriy yilning may oyida mazkur maktablarining respublika bo'yicha 110 nafar mentor-trenerlari tayyorlandi. Hozirda mentorlar 2 813 nafar volontyor yoshlarga tasdiqlangan 3 oylik reja asosida seminar-treninglar o'tib, ijtimoiy ahamiyatga ega turli loyihalarni amalga oshirmoqda.

Shu kunga qadar "Volontyorlar maktabi"ga a'zo bo'lish istagini bildirib, 2 ming nafardan ziyod yoshlar elektron ro'yxatdan o'tgan. Ro'yxatga olish ishlari davom etmoqda. 688 nafar volontyor stajyorlar agentlik hududiy va mahalliy bo'limlarida joriy yilning aprel-may oylari davomida faoliyat yuritib, ularga Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi mablag'lari hisobidan jami 7 milliard so'm jamoatchilik shartnomasi asosida haq to'landi.

"IMKONIYAT"DA 50 MILLION SO'M

Yoshlarning ta'limga va tadbirkorlikka qiziqishini oshirish, chekka hudud yoshlarining ta'lim olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ta'limga yo'naltirgan tadbirkorlik faoliyatida yosh tadbirkorlarni moliyaviy hamda uslubiy qo'llab-quvvatlash, yoshlarning xorijiy tillar, AKT va zamonaviy kasblarni o'rganishiga munosib sharoit yaratish maqsadida "Mikrokreditbank" ATB bilan hamkorlikda "Imkoniyat" tanlovi e'lon qilindi. Mazkur tanlovda saralab olingan 70 nafar istiqbolli loyiha egalari 50 million so'mgacha ssuda mablag'lari ajratildi.

MUROSASIZ “MUNOZARA” YAKUNLANDI

Yurtimizda har jabhada faol, erkin fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. “Yoshlar oyligi” doirasida shunday faol yoshlarning mantiqiy fikrlash va mohirona munozara olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi va “Kamalak” bolalar tashkiloti sardorlari o‘rtasida “Munozara” intellektual turniri o‘tkazildi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Xalq ta’lim vazirligi hamkorligida 4 bosqichda (sektor, tuman, viloyat va respublika) tashkil etilgan “Munozara” turnirining finaliga Sirdaryo viloyati mezbonlik qildi.

Turnir boshlanishidan oldin viloyat “Yoshlar markazi”da tantanali ochilish marosimi o‘tkazilib, jamoalar o‘rtasida qur’a tashlandi. Qur’a natijalariga ko‘ra, 4 ta guruhga bo‘lingan 16 ta jamoa dastlabki saralash bellashuvlarida kuch sinashdi. Birinchi bosqichda tanlangan mavzu yuzasidan qo‘li baland kelgan jamoalar keyingi bosqichga chiqdi.

Turnir davomida eng yaxshi notiqlar ham aniqlandi. Barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o‘tgan Farg‘ona va Namangan viloyati jamoa-



lari 1-o‘rin uchun final bahsiga kirishgan bo‘lsa, 3-o‘rin uchun Buxoro va Navoiy viloyati jamoalari bellashdi.

Murosasiz, qizg‘in va kutilmagan lahzalarga boy bo‘lgan o‘yinda Namangan viloyati jamoasi muvaffaqiyatli g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. 2-o‘rinni Farg‘ona viloyati, 3-o‘rinni esa Buxoro viloyati jamoalari egalladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, turnir davomida boshqalarda yaxshi taassurot qoldirgan eng yaxshi notiqlar ham hakamlar hay’ati tomonidan 1, 2, 3-o‘rinlarda “The best speaker” nomnatsiyasi bilan taqdirlandi.

Mashhura NASRIDINOVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

MUSOBAQA, SAYOHAT, ZIYORAT



Respublikamizning barcha hududidan faqat g‘oliblikni maqsad qilib kelgan 150 nafarga yaqin yoshlar Markaziy Osiyodan o‘tgan qadimiy karvon yo‘lining tutashgan joyi – Jizzaxda uchrashdi. Iqtidorli yoshlar taniqli jamoat arbobi Sharof Rashidov xiyobonida katta tantana bilan kutib olindi.

– Bizni yaxshi kutib olishdi, xursand bo‘ldik, – deydi qoraqalpog‘istonlik Gulsara Safarova. – Musobaqada yangi do‘stlar orttirdik. Bu yerning odamlari juda mehmondo‘st ekan. Shaharning diqqatga sazovor joylarini sayohat qildik. Jizzaxga yana kelish niyatim bor.

“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida tashkil etilgan shahka musobaqasining final – respublika bosqichi ishtirokchilari 16–21, 22–26, 27–30 yosh toifalarida bellashdi. Murosasiz va keskin bellashuv natijasiga ko‘ra, Baxmal tumanidagi “Bunyodkor” mahallasidan Nafosat Shukrullayeva, Urgut tumanidagi “Andak” mahallasidan Farangiz Rofiyeva, Sayxunobod tumanidagi “Yangi hayot” mahallasidan Mo‘tabar Saidova, Pop tumanida-

gi “San’atkor” mahallasidan Shohrux Sodirjonov, Sherobod tumanidagi “Istiqbol” mahallasidan Otabek Ahmedov, Navoiy shahridagi “Ishonch” mahallasidan Oybek Bozorov o‘z yosh toifalari bo‘yicha 1-o‘rinni egalladi.

Musobaqa dasturidan turli ko‘ngilochar tadbirlar, sayohatlar o‘rin olgan. Xususan, ishtirokchilar davlat arbobi Sharof Rashidov haykali poyiga gulchambarlar qo‘ydi. Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov hamda Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim muzeylariga tashrif buyurib, muzey faoliyati hamda ijodkorlarning ijodi bilan tanishdi.

Sportchilar G‘allaorol tumanidagi Sa‘d ibn Abu Vaqqos ziyoratgohida ham bo‘ldi.

Respublika bosqichi g‘oliblarini tantanali taqdirlash marosimi taniqli xonandalar ishtirokidagi gala-konsert dasturi bilan yakunlandi. Jizzax viloyatiga tashrif ham sayohat, ham ziyorat ruhida o‘tdi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

“TURON” MAHALLASI FINALDA


Andijon viloyati “Yoshlar markazi”da “Zakovat” intellektual turnirining viloyat bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Unda intellektual turnirning quyidagi bosqichlarida qatnashgan 6 ming 200 nafardan ziyod yoshlardan iborat jamoalar orasidan saralangan eng kuchli 16 ta jamoa o‘z bilim va intellektual salohiyatini yana bir bor sinovdan o‘tkazdi.

Qizg‘in va murosasiz bahsda Marhamat tumanidagi “Turon” mahallasi jamoasi 1-o‘rinni, Andijon tumanidagi “Kengash” mahallasi jamoasi 2-o‘rinni hamda Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “Tadbirkor” mahallasi jamoasi 3-o‘rinni egalladi.

Endilikda ular “Zakovat”ning respublika bosqichida andijonliklar sha’nini himoya qiladi.

Sarvinoz IMINJONOVA,
O‘ZDJU talabasi



ISTANBULGA

5

KUNLIK SAYOHAT

“Yoshlar oyli” munosabati bilan respublikamiz hududlarida sport musobaqalari ko‘tarinki kayfiyatda o‘tkazilmoqda. Musobaqalarda mahallamiz yoshlari faol ishtirok etib, respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Mirzabek NOSIROV,
Sergeli tumanidagi “Nilufar” mahallasi
yoshlar yetakchisi



Bular bejiz emas. Chunki sportga qiziquvchi yoshlardan jamoa tuzib, ularni musobaqaga tayyorladik. Mazkur jamoalardan biri “5 tashabbus olimpiadasi”da voleybol bo‘yicha ishtirok etib, tuman bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Yana bir jamoamiz stritbol sport turi bo‘yicha Toshkent shahar bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, finalga yo‘llanma oldi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida esa mahalla hududida joylashgan kompyuter o‘yinlari klubi bilan hamkorlikda kibersport musobaqalarini muntazam tashkil-lashtirganimiz. Hozir mahallaning o‘zida jamoalar soni 4 taga yetdi. Bundan tashqari, mahalla yoshlari uchun shaxmat to‘garagini yo‘lga qo‘yganimiz.

“Yashil makon” loyihasiga ham mahalla yoshlarini faol jalb qildik. Loyiha doirasida mahallamizda ekilgan har bir ko‘chatga bittadan yoshni biriktirib qo‘yganimiz. Boshqa mahallalarda ko‘chatlarni sug‘orish, ularni nazorat qilish uyboshilar yoki mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlari zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, “Nilufar” mahallasida har bir uy oldiga ekilgan ko‘chatlar aynan shu uylarda yashovchi yoshlarga biriktirildi. Shu orqali nafaqat yoshlarda tabiatga muhabbat hissi-ni uyg‘otish, balki jismoniy mehnat bilan ham shug‘ullanishlari uchun imkoniyat yaratish maqsad qilindi.

Yaqinda yoshlar bilan amalga oshirilgan tadbir va loyihalarni Toshkent shahar hokimi



“**YOSHLARIMIZ STOL TENNISI, VOLEYBOL, BASKETBOL BILAN SHUG‘ULLANISH, YOSHLAR STUDIYASIDA ESA IJOD QILISH IMKONIGA EGA BO‘LADI.**”

Jahongir Ortiqxo‘jayev va Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa‘dulla-yev tomonidan e‘tirof etilib, Turkiyaning Istanbul shahriga 5 kunlik sayohat uchun vaucher bilan taqdirlandim. Bu imtiyoz yoshlar yetakchilariga ko‘rsatilayotgan e‘tiborning bir ko‘rinishidir.

Hali qator rejalarini amalga oshirish niyatidaman. Ulardan biri mahallamizda yoshlar maydonini tashkil etish. Maydonda yoshlarimiz stol tennis, voleybol, basketbol bilan shug‘ullanish, yoshlar studiyasida esa ijod qilish imkoniga ega bo‘ladi.



IJODKOR YOSHLAR E‘TIBORDA

“YANGI NAFAS”

Otabek QOBILOV,
Chust tumanidagi
“Tinchlik” mahallasi
yoshlar yetakchisi



Mahalladagi yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilganda nafaqat yoshlarni ish bilan ta‘minlash, balki bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishga alohida ahamiyat berishimiz kerakligi tushuntirilgan edi.

O‘zim ijodga qiziqqanim bois tumanimizdagi “Chust haqiqati” gazetasida bir nechta maqolalarim e‘lon qilingan. Kichik maqolalardan boshlangan ijodiy chiqishlarim bugungi kunga kelib viloyat, respublika hamda xorij gazetalarining sahifalarida ham bo‘y ko‘rsatmoqda.

Bolaligimdan “Zomin” seminarida qatnashishni orzu qilardim. 2021-yil “Zomin” seminariga borganlarning fikrlarini, suratlarini ko‘rib, orzu kuchli xohishga aylana boshladi. Nima qilsam, men ham ushbu seminar qatnashaman degan o‘y xayolimdan ketmadi. Intilishlarim natijasida 2022-yil ushbu seminar hududiy bosqichida badiiy publisistika yo‘nalishida ishtirok etdim. Seminarining mintaqaviy

bosqichi ham ajoyib o‘tdi. Haqiqiy ilhom, ijodiy muhitni, ijodkorlarga cheksiz e‘tiborni ko‘rdim bu yerda. Ustozlar sabog‘i, mehrga yo‘g‘rilgan mu-shoiralar, yangi-yangi do‘stlar, go‘zal manzara hamda ijod bog‘i bag‘ridagi go‘zal kunlar hech qachon yodimdan chiqmasa kerak.

Mahalladagi ijodkor yoshlarga alohida ahamiyat berib kelyapman. Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish asosiy maqsadim. Iqtidorli va ijodkor yoshlarni aniqlab, ularning ro‘yxatini shakllantirdim. “G‘ova” madaniyat markazida ham kitobxonlikka oid ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkillashtirildi.

Hozirga qadar mahallamiz yoshlaridan Maftuna Karimovaning “Tashakkurnoma” deb nomlangan she‘riy to‘plamini nashrdan chiqardik. Shuningdek, Sevinch Sobirova va Nilufar Turdialiyevaning she‘rlari ham tuman gazetalarida e‘lon qilib kelinmoqda. Qolgan yoshlarning ham she‘riyatga, kitobxonlikka qiziqishi ortib bormoqda.

Joriy yilning 26-iyun kuni respublikamizning 8 jta shahrida, 30-iyun – Yoshlar kuni hamda “Olimpia kuni” xalqaro sport bayramini nishonlashga bag‘ishlangan “Yangi nafas” yugurish marafoni o‘tkaziladi. Kecha Yoshlar ishlari agentligida shu mavzu yuzasidan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.

Yoshlar ishlari agentligi ko‘magida o‘tkazilayotgan musobaqaning rasmiy shiori – “Bir Vatanda, bir vaqtda, bir xil masofaga, bir maqsadda birga yuguramiz!”.

Musobaqada Farg‘ona, Namangan, Chirchiq, Guliston, Jizzax, Samarqand, Shahrisabz va Toshkentning markaziy ko‘chalari bo‘ylab bir vaqtning o‘zida 16 000 nafardan ziyod ishtirokchi 3 kilometr masofaga yuguradi. Musobaqada hamma ishtirok etishi mumkin. Sport trassasining puxta tayyorlanishi imkoniyati cheklangan yuguruvchilarning xavfsiz va qulay sharoitlarda ishtirok etishini ta‘minlaydi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV
Foto: Ziyoda RAHIMBOYEVA



KITOB AFZALMI, INTERNET?

Bugungi kunda yoshlarimiz kitobdan ko'ra ko'proq internetni afzal ko'radi. To'g'ri, internet yoshlarga keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'ylab sayr qilib, kurray zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lim muassasasining masofaviy talabasi bo'lish, hatto elektron xizmatlarni shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiyalar o'tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish. Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda rivojlanib, yoshlarning kitobga qiziqishini so'ndirib bormoqda.

Dunyo olimlarining tadqiqotlari natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, kompyuterda bir soat ishlagan odam yigirma besh daqiqa dam olishi kerak ekan. Yoshlarning kompyuter qarshisida qancha vaqt o'tirishini hisoblaydigan bo'lsak, uning zararlari shunchalik ko'pligini bilib olishimiz mumkin.

Zarnigor ESHPO'LATOVA,
O'zDJTU talabasi



PREZIDENT GRANTI

Yoshlar orasida turli oila muhitida tarbiyalangan, turli qatlamlarga oid yigit-qizlar bor. Ularning barchasi ham ta'lim olish yoki ish bilan band emas. Bunday yoshlar esa uyushmagan yoshlar deb atalmoqda.

Shu bois joylarda eng birinchi galdam mana shunday qatlam vakillariga e'tibor qaratiyapti. Natijada ishsiz, kasb-hunarsiz yoshlar soni tobora kamaymoqda. Bu o'z-o'zidan jamiyat sofigiga ta'sir ko'rsatadi, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining oldini oladi. Shuning uchun ham bugun har bir mas'ul idora rahbari o'z vazifalarining eng avvaliga yoshlar bilan ish olib borishni qayd etib qo'ygan. Chunki zamon talabi shu.


Buni to'la anglagan holda mamlakatimizda yoshlarning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinmoqda. Masalan, ikki va undan ortiq farzandi oliy o'quv yurtida shartnoma asosida o'qiyotgan oilalarga imtiyozli ta'lim krediti berish yo'lga qo'yildi. Bu kreditlarni yoshlar oliy ta'lim muassasalarini bitirib, ishlashni boshlaganlaridan keyin uzishi mumkin. 2021-yildan kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun Prezident granti joriy etildi. Prezident stipendiyasi faqat bir o'quv yili uchun mo'ljallangan bo'lsa, ushbu grant mablag'lari to'rt yil davomida to'lab borilyapti.

Shuningdek, IELTS, TOEFL, GMAT va SAT kabi imtihonlarda maksimal ballning kamida 75 foizini to'plagan yoshlarning imtihon xarajatlari to'liq qoplab berilmoqda. Yoshlarning loyihalarni moliyalashtirish uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshida tashkil etilgan alohida jamg'arma loyihalarni qulay shartlarda va past foizlarda moliyalashtiryapti. Bundan tashqari, kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish binolari qurilib, yoshlarga imtiyozli shartlarda ijara va lizing asosida berilishi yo'lga qo'yildi.

Kasb-hunar hamda ta'dbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish orqali maxsus sertifikat olgan yoshlarga Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz past stavkada mikroreditlar ajratilmoqda. Bu kreditlar 7 yil muddatga 3 yil imtiyozli davr bilan berilyapti. Ayniqsa, maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida "Bo'lajak olim" tanlovi tashkil qilingani va bu orqali yoshlarning eng yaxshi innovatsion hamda startup loyihalariga katta mablag'lar yo'naltirilayotgani yoshlarga berilayotgan katta imkoniyatlardan biridir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda bosqichma-bosqich, izchil davom ettirilmoqda.

Tolibjon MIRZAJONOV,
Andijon davlat universiteti talabasi



AVTOBUSDAGI SABOO

Dugonam ikkimiz yo'lakdan ketar ekanmiz, bekatga yaqinlashib kelayotgan avtobusni ko'rdig-u, qadamimizni ildamlatdik.

Har doimgidek avtobus kelishi bilan odamga to'lib ketdi. Yo'lovchilar chiqishini kutgan avtobus ancha vaqt to'xtab qoldi. Haydovchi orqa eshikdan sekin chiqayotgan qizlarga "Hoy singillarim, tezroq chiqsalaring bo'lmaydimi?! Bu yerda hamma ishga, o'qishga shoshil-yapti-ku", - dedi ovozi baland ko'ta-

rib. Shundan so'ng qizlar tezroq chiqishga harakat qildi. Ular chiqib olgach qizlardan biri qo'ltiq tayoqda ekanligini ko'rgan haydovchi hijolat bo'lib qoldi. Avtobusdagi jim-jitlikni bir yigitning "Keling, bu yerga o'tiring", degan gapi buzdi. Universitet yonida tushib qolar ekanmiz, avtobus haydovchisining qizlardan uzr so'raganini eshitdik.

Muxlisa ORIFOVA,
O'zDJTU talabasi

TALABA NEGA ISHLAY OLMAYDI?



Bugun o'qish bilan birga, o'ziga mos ish faoliyati bilan shug'ullanib, o'zini o'zi ta'minlaydigan, hatto oilasiga ham moddiy ko'mak berib turadigan talabalar ko'p.

Yurtimizda shu kunga qadar talabalarning ishlashi haqida biror me'yoriy hujjat chiqarilmagan edi. Joriy yil 4-mart kuni Prezidentimiz raisligida talabalarning ishlab, daromad topishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish mavzusida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bundan buyon barcha davlat tashkilotlarida talabalarning ishlashiga ruxsat berilishi ma'lum qilindi. Shundan so'ng menda ham ishga joylashish fikri uyg'ondi. Universitetimizda mehnat yarmarkasi bo'lganda meni o'quv markazlarining biriga ona tili va adabiyot fanidan repetitorlik bo'yicha suhbatga yozib olishgandi. Ammo hech qanday suhbatga chaqirishmadi. Demak, bunday yarmarkalar xojako'rsinga ekan, deb o'ylab qoldim.

Bundan tashqari, men topgan ishlar o'qishim bilan bir vaqtga to'g'ri kelib qoldi. Shu taraflama ham ancha qiynalдим. Ko'p joylarda esa hali 1-kursligim va tajribasizligim tufayli ishga qabul qilishmadi. Agar ular ish berishmasa, amaliyotda o'rgatishmasa, shogirdlikka olishmasa, menda tajriba qayerdan paydo bo'lishi mumkin?!

Jannatoy RO'ZIBOYEVA,
O'zDJTU talabasi

SIZ UDDALAYSIZ

Ko'pchilik abituriyentlar imtihon kuni hayajonlanib, bilimidan to'g'ri foydalana olmaydi. Imtihon kuni hayajonlanmang! Hayajon qo'rquv bilan bog'liq. Qo'rquv qayerdan keladi, insonni eng ko'p qo'rqatadigan narsa bu - mavhumlik.

Qo'rvuqni yengib o'tish usullaridan biri: agar sizda hayajon kuchli va qo'rvuqni yengish imkoni bo'lmasa, eng dahshatli holatni tasavvur qilishingiz kerak bo'ladi. Ya'ni imtihondan yiqilib, o'qishga kirolmagan holatingizni tasavvur qiling. Ana o'shanda siz nima qilaysiz? Birinchi, ikkinchi, uchinchi va qo'shimcha yordamchi rejalar haqida o'ylaysiz.



Shunda siz xotirjam bo'lasiz va imtihonda vaqtingizni to'g'ri taqsimlaysiz. Abituriyentlarga kelayotgan imtihon kunlarida omad tilayman. O'zingizga ishoning, siz hammasini uddalaysiz!

Sevinch SAMADOVA,
O'zDJTU talabasi

VERGUL



QACHON QO'LLANADI?

Rashid XO'JAMOV

O'zbek tilida vergul eng ko'p ishlatiladigan tinish belgilaridan biri sanaladi. Tilimizda tinish belgilarining qo'llanishi, xususan, vergulning ishlatilish o'rni haqida qoidalar mavjud. Unga ko'ra, uyushiq bo'laklar (uyushmagan, ammo takror qo'llangan so'zlar ham), undalmalar, kirish so'z va kirish birikmalar, tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi (ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom) so'z-gaplar, ajratilgan bo'laklar, bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar, bog'langan qo'shma gaplar va undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, vergul bilan ajratiladi. Shuningdek, ko'chirma gap, darak, buyruq gap bo'lsa, undan keyin vergul qo'yiladi.

“KITOBDA SHUNDAY YOZILGAN”

Aniq qoidalar mavjudligiga qaramay, juda ko'p verguldan noo'rin foydalanish va kerakli o'rinlarda qo'llamaslik, boshqa tinish belgisi bilan almashtirib ishlatish hollari uchraydi. Hatto biz sevib o'qiydigan badiiy asarlarda ham bu holatni kuzatib, ba'zan ta'bimiz xira bo'ladi.

Maktab davrlarida biror so'zning imlosini tekshirmoqchi bo'lsak, yoki tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq muammoga duch kelsak, kitoblarga (ko'pincha badiiy asarlarga) murojaat qilar edik. O'shanda kitoblarda xatolar kam bo'larmidi yoki biz shunday o'ylaganimizmi, har holda masalaga oydinlik kir-

tish osonroq kechardi. Hozir esa bir kitobda unday, ikkinchisida esa yana boshqacha qoidalarga amal qilinganiga guvoh bo'lyapmiz. Bir-ikki o'rinda ko'z adashib ketib qolgan xatolarni kechirsa bo'ladi, ammo o'sha oddiy (aslida katta) xatoga har kuni qayta-qayta duch kelaverish ham o'quvchining matndan bezib qolishiga sabab bo'ladi. Bu faqat kitoblar emas, ijtimoiy tarmoq sahifalari, gazeta-jurnallar uchun ham taalluqli.

Biz maqolada ko'pchilik chalg'iydigan vergulning ishlatilish o'rinlariga to'xtalmoqchimiz.

VERGUL KERAKMI?

Tilimizda **ammo, lekin, biroq** kabi zidlov bog'lovchilari o'zidan oldin vergul oladi va gap bo'laklarini hamda sodda gaplarni zidlov munosabati bilan bog'laydi mazmunidagi qoida bor. Ammo zidlov bog'lovchilaridan oldin nuqta qo'yilgan bo'lsa, ya'ni yangi gap zidlov bog'lovchisi bilan boshlansa, undan so'ng vergul ishlatiladi degan qoida mavjud emas! Demak:

Toshkent chiroyli shahar. Ammo, boshqa shaharlar ham undan qolishmaydi - xato.

Toshkent chiroyli shahar. Ammo boshqa shaharlar ham undan qolishmaydi - to'g'ri.

Toshkent chiroyli shahar, ammo boshqa shaharlar ham undan qolishmaydi - to'g'ri.

Shu qoida boshqa bog'lovchilarga ham taalluqli. Sabab bog'lovchilari (chunki, negaki...) er-gash gapni bosh gap bilan bog'laydi va ulardan oldin vergul ishlatiladi. Ammo sabab bog'lovchilari bilan yangi gap boshlanganda ulardan so'ng vergul ishlatilmaydi!

Shuning uchun, shu sababli kabi ko'makchil qurilmalar odatda o'zidan oldin vergul talab etadi va bu birikmalardan keyin vergul qo'llashga zarurat bo'lmaydi. Quyida shunday o'rinlarni ko'rib o'tamiz.

Avvaliga nima bo'layotganini tushuna olmadi. Shu sababli, atrofga savol nazari bilan qarab qoldi - xato.

Avvaliga nima bo'layotganini tushuna olmadi. Shu sababli atrofga savol nazari bilan qarab qoldi - to'g'ri.

Avvaliga nima bo'layotganini tushuna olmadi, shu sababli atrofga savol nazari bilan qarab qoldi - to'g'ri.

Bu birikmalardan, yuqoridagi bog'lovchilardan ham keyin

kirish so'zlar kabi maxsus vergulli so'z(birikma)lar kelsa, verguldan foydalanish mumkin:

Avvaliga nima bo'layotganini tushuna olmadim, shuning uchun, albatta, ulardan nima bo'layotganini so'rab olishni dilimga tugib qo'ydim - to'g'ri.

Ayniqsa, albatta, ko'ra va yana ba'zi so'zlarning vergulli-vergulisiz o'rinlari bor. Masalan, **ayniqsa** modal so'z bo'lib kelganda vergul qabul qiladi: uning oilasiga, ayniqsa, yosh bolalariga achinaman.

Ammo juda ham, benihoyat kabi so'zlar ma'nosida kelsa, vergul kerak emas: maktablarda adabiy til xususiyatlarini chuqur o'rgatish ayniqsa ahamiyatlidir.

Albatta so'zidan oldin va keyin har doim vergul ishlatishga o'rganib qolganmiz. **Albatta** kirish so'z vazifasida ishlatiladi, bunda u so'zlovchining voqelikka munosabatini bildiradi va vergul bilan ajratiladi, ammo bu so'z gapda fikrning, ish-harakatning qat'iyli, muqarrarligini, shubhasiz amalga oshish-oshmasligini anglatganda vergul kerak bo'lmaydi. Ishlatilganda esa undagi hukmning qat'iylik kuchi pasayadi. Solishtiramiz shanba kuni albatta dam olaman. Shanba kuni, albatta, dam olaman.

Ko'ra so'zi esa qiyoslash-taqqoslash ma'nosida kelsa, nisbatan, ...ga qaraganda kabi ma'nolarda qo'llansa, vergul ishlatilmaydi: men o'zimni ukamdan ko'ra omadliroqman deb o'ylayman. **Asosan, muvofiq, binoan** kabi so'zlar ma'nosida ishlatilganda ko'radan so'ng (gap o'rntasida ikki tomonidan) vergul qo'yiladi: kelishuvga ko'ra, men uni boshqa bezovta qilmasligim kerak edi.

Hali bu hammasi emas. Tilimizda shunday so'z va birikmali o'rinlar borki, bu bizni juda ko'p ikkilanishlarga majbur qiladi. Ularga hali yana batafsilroq to'xtalamiz.

G'OLIB ANIQLANDI!



Loyiha muallifi:
Ziyoda RAHIMBOYEVA

"Yoshlar ovozi" gazetasida kitobxon yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan "Birga o'qiyimiz?" loyihasining 3-soni g'olibini e'lon qilamiz!

Uraimova Mohigul Qobiljon qizi - 2021-yilda Farg'ona davlat universiteti lingvistika: ingliz tili yo'nalishi bo'yicha magistratura-ni tamomlagan.

Gazetaning 32-sonida taqdim etilgan O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murod qalamiga mansub "Otamdan qolgan dalalar" romani asosida tuzilgan savollarga

to'g'ri va to'liq, eng muhimi, boshqa ishtirokchilardan avval javob yo'l-lagan Mohigulni tahririyat jamoasi nomidan tabriklaymiz! Sovg'a sifatida kitobsevar g'olibamizni maxsus diplom, o'zbek hamda jahon adabiyotining eng sara namunalari bilan iborat kitoblar beshtaligi kutmoqda.

Shu bilan birga, faol ishtiroki uchun **Sarvinoz Nurmurodova, Husnidabonu Hazratqulova, Madina Jalolova, Gulmira Adhamova va Jasur Jumayevga** tashakkur aytamiz. Loyihamizni kuzatib boring, qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishish va savollarga javob yo'llang!

MUBOLAG'A

Mubolag'a arab tilida "kattalashtirish", "kuchaytirish" ma'nosini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati demakdir. Bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo'ladi, o'quvchi ko'zi oldida yorqinroq gavdalanadi. Alisher Navoiyning

Mehr emas, ohim o'tidin ko'kka yetmish bir sharar,

Ayb emastur gar desam: "Dam ursam aflok o'rtanur"

baytida oshiqning sevgilisi hajrida chekkan iztiroblari g'oyatda kuchaytirib tasvirlangan: ko'kdagi quyosh oshiq yerda chekkan ohining bir uchquni emish. Bunday bo'rttirilgan tasvir tufayli oshiq qiyofasi, ruhiy holati, ichki olami, qalbidagi mavj urgan ehtirosi ta'sirchan, jozibali ifodalangan.

Anvar HOJIAHMEDOV,

"She'r san'atlari" kitobidan

IZLAM

Sardor SA'DULLAYEV
tayyorladi.

YOXUD TOPILMAYOTGAN KITOBLAR

Ko'p kitob o'qigan inson keng fikrlashi bilan ajralib turadi. Bugun yur-timizda kitobga, kitob o'qishga e'tibor katta. Mutolaa bilan mashg'ul bo'lishi uchun yoshlarga katta imkoniyatlar yaratilyapti. Avvallari kitob xarid

qilish uchun shaharlarga borish kerak bo'lgan. Endilikda esa uyda turib onlayn kitob do'konlari orqali kitobga buyurtma berish mumkin. Bu o'z-o'zidan badiiy asarlar o'qilishini ko'paytirmoqda.

“**JEK LONDONNING "HAYOTGA MUHABBAT" HIKOYASINI HAR YILI KAMIDA UCH MARTA O'QIYMAN VA HAR SAFAR O'ZIM UCHUN YANGIDAN-YANGI MA'NOLAR HOSIL QILAVERAMAN.**

Biroq mutolaa deb atalgan yo'lda ayrim asarlar sizga hamrohlik qila olmaydi. Buning sababi biz xohlagan ba'zi kitoblarning sotuvda yoki kutubxonalarda yo'qligidir. Xo'sh, bugungi yoshlar qaysi asarni topishga qiynalmoqda?

Yoshlarning qaysi turdagi kitoblarni o'qishni yoqtirishi bilan qiziqqanimizda quyidagicha javob oldik:



Samandar YUSUPOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi:

– Ikki marotaba "Yosh kitobxon" tanlovida qatnashdim. Shu davr davomida Maxtumqulining "Bulbul nolasi" asarini rosa izladim, hatto elektron variantini ham topolmadim. Ushbu asar shoimning diniy-tasavvufiy, orifona yo'nalishdagi go'zal va mumtoz she'rlaridan iboratdir. Shu kitob qayta nashr etilsa, she'riyat shaydosi sanalgan xalqimiz yana bir betakror asarga ega bo'lar edi.

Bundan tashqari, Facebook ijtimoiy tarmog'idagi "Kitobxonlik davrasi" guruhida kitobxonlar o'rtasida qaysi kitoblarni topishga qiynalyotgani xususida so'rovnoma o'tkazdik. Unga ko'ra, kitobxonlar "Yashik odam", "Dengiz zahmatkashlari", "Odyssey", "Tinch oqar Don", "O'lmas qoyalar", "Axloq kabir", "Davlat", "Qonunlar" (Aflotun), "Qadimgi Yunoniston afsonalari", "Dahriyning ibodati", "Edvarda", "Cho'l bo'risi", "Shajarayi turk" kitoblarni topishga qiynalayotganini bildirdi.



Abror POYONOV,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi:

– Men badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishni yaxshi ko'raman, lekin kitob ajratish odatim bor. Tanlab o'qiyman. Ayniqsa, hajmi qisqa, ma'noga boy va ta'sir doirasi kuchli hikoyalar yoqadi. Masalan, Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasini har yili kamida uch marta o'qiyman va har safar o'zim uchun yangidan-yangi ma'nolar hosil qilaveraman. O'zbek adabiyotidan Abdulla Qahhorning barcha hikoyalari yoqadi. Boshqalarga ham tavsiya qilaman!



Xorun O'RINOV,
Qoraqalpog'iston davlat universiteti talabasi:

– Yaqinda Marina Svetayevaning she'r va qissalardan iborat "Dengiz – egizim mening" nomli kitobini oldim va shu kundan mutolaga kirishdim. Rus adabiyotining "Kumush asr"ga mansub shoira sifatida e'tirof qilingan Svetayevaning she'rlari meni rom etdi. Bugun men kitobxon sifatida o'zim uchun adabiyot atalmish cheksiz ummondagi yangi javohirlarni kashf qilayotganimdan xursandman.



Gulshoda JUMANAZAROVA,
Urganch davlat universiteti talabasi:

– Mening eng sevgan asarim Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romanidir. Uni har gal maroq bilan o'qiyman. Asardagi bosh qahramon N orqali butun bir jamiyatning beparvoligi ochib beriladi. U tirik bo'la turib o'zining janozasida qatnashadi, adolatsizliklarga uchraydi, so'ngra chiday olmasdan o'zini poyezd tagiga tashlaydi. Menga bu asar hech kimga beparvo bo'lmaslik, insonni inson sifatida hurmat qilish, har kim qadr-qimmatga ega bo'lishi kerak ekani anglatgani uchun juda qadri.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 17-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida tarildi va saqlandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuatchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma: G-655, Adadi – 10584. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling



1 2 3 4 5 6